Minhojiddin Haydar (1941)



# Minhojiddin Haydar (1941)



Minhojiddin Haydar 1941 yilning 3 may kunida Andijon viloyatining Oltinkoʻl tumanida tugʻilgan. Andijon meditsina bilim yurtini (1958—1960), Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan (1963—1968) tahsil koʻradi. «Yosh gvardiya» nashriyotida (1968—1972), «Oʻzbekiston madaniyati» (hozirgi «Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati») gazetasida (1972—1981), Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyotida (1982—1991) muharrir boʻlib ishlagan.

Uning birinchi sheʼriy toʻplami 1971 yilda «Inson yuragi» nomi bilan chop etiladi. Soʻngra uning «Nina uchidagi qasr» (1979), «Oʻchmas boʻron» (1979), «Tirik alanga» (1984), «Bulbulsoʻz» (1991) kabi toʻplamlari va 1992 yilda «Musallo» nomli publitsistik asari bosilib chiqqan. U «Onaizor» (1970), «Doʻzaxdagi shayton» (1976) kabi sheʼriy drama va pamfletlarning ham muallifidir.

2023-09-14 20:26:36